

VIZUALLASHTIRISH BILISH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH
VOSITASI SIFATIDA

Mansurova Zilola Saloxiddin Qizi

*Toshkent davlat transport universiteti Sotsiologiya yoʻnalishi 2-kurs
talabasi*

Nazarova Nilufar Joʻrayevna

Toshkent davlat transport universiteti katta oʻqituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada taʼlim tizimida oʻquv mashgʻulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron taʼlim resurslari va multimedia taqdimotlaridan, jumladan MS Power Point dasturida yaratilgan taqdimotlardan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlish tahliliga bagʻishlangan. Unda vizualizatsiya oʻquv materialini va oʻquv natijasi oʻrtasidagi oraliq bogʻlovchi boʻlib, bilish jarayonini oʻzlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit soʻzlar: *taʼlim tizimi, islohot, elektron taʼlim resursi, pedagogik texnologiya, vizuallashtirish, taqdimot jarayoni, ravon til melodikasi, oʻquv materialini.*

Globalashib borayotgan zamonaviy oʻzbek jamiyatida zamonaviy oliy taʼlim tizimi jahon oliy taʼlim tizimi modernizatsiyasi namunalarini toʻgʻridan toʻgʻri transformatsiya qilayotganligidagi ijtimoiy-madaniy, intellektual sohadagi muammolarni oʻrganish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1, 2, 3, 4].

Mamlakatimizda olib borilayotgan oliy taʼlim tizimidagi islohotlarning huquqiy bazasi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonida talaba-yoshlar taʼlim-tarbiyasi uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni oʻz ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish kerakligi taʼkidlanilgan. Shunga koʻra oʻquv mashgʻulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron taʼlim resurslari va multimedia taqdimotlaridan, shu jumladan MS Power Point dasturida yaratilgan taqdimotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan slaydli taqdimotni ishlab chiqish pedagogik texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda vizuallashtirishni oʻrganishga eʼtibor qaratiladi. Vizualizatsiya deb maʼlumot va oʻquv mazmunini koʻrgazmali tasvirlash yordamida koʻrsatishni tushunamiz.



Vizuallashtirish (ya'ni namoyish etish)dan to'g'ri foydalanishni ko'rib chiqib atrofdagi olamni beshta sezgi a'zolarimiz orqali (ko'z, quloq, xid bilish, ta'm bilish, paypaslash, ushlab ko'rish) orqali idrok qilamiz. Ma'lumki, idrok qilishda hammadan ko'proq ko'z asosiy rol o'ynaydi. Agar inson bu sezgi a'zolariga ega bo'lmay qolsa, idrok qilish imkoniyati cheklanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, odamlar o'rtasidagi muloqotda va o'qishni tashkil etishda bu narsani hisobga olish zarur. Ma'lumot yoki o'quv materiali doimo shunday taqdim etilishi kerakki, u vizual idrok etish qobiliyatini osonlashtirsin, bu esa ko'z bilan nimanidir ko'rsatish keraklagini bildiradi [5, 6, 7].

Vizuallashtirish usullari ko'rsatmali tasavvur vositasi ham hisoblanadi. Ko'rsatmali tasavvurning boshqa imkoniyatlari: modeli, biror jarayon namoyishi, predmetlar bilan harakatli munosabatlarni keltirib o'tish mumkin. Afsuski ko'pchilik taqdimot yaratishda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Slayd tayyorlashdagi tipik xatoliklar: ko'p ma'lumotlarni tartibsiz joylashtirish; juda mayda harflarda yozish; juz'iy xatolilik bilan yozish, taqdimotda rasmlardan foydalanmaslik; uyg'unlikning yetishmasligidir.

Slaydli taqdimotlarni ishlab chiqishda taqdimot ko'rinishi, uni umumiy rasmiylashtirish, mavzu mazmunini va namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni tanlash hamda ularni o'z o'rnida qo'llash muhim sanaladi.

Taqdimot slaydlarni yaratishda quyidalarga rioya etish lozim: har bir slaydda sarlavha bo'lishi; jumla tuzishda aniq va lo'nda fikrni bayon etish; ma'lumotlarning ketma-ketligini ta'minlash; slayd tayyorlashda telegraf usulidan foydalanish; chalkashtiruvchi iboralarni kiritmaslik; ma'lumotlar ko'pligi tahsil oluvchilarning aqliy zo'riqishiga olib kelishi mumkin; har bir slaydda so'z birikmalari 7-8 qatordan oshmaslik; slayd tayyorlashda och ranglardan foydalanish; slayd foniga to'q ranglarni ishlatish; slayd yozuviga to'q ranglarni ishlatish; to'q ko'k va yashil ranglardan qora rang o'rnida foydalanish; to'q ranglarni katta hajmda ishlatmaslik; sabzirang tusdagi ranglar ishtirokchilarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini xisobga olish; qizil rangni faqat biror bir elementga urg'u berish uchun ishlatish lozim.

Taqdimot jarayonida nafaqat taqdimot slaydlarning sifati, balki taqdimotchining nutqi, materiallarni qonun-qoida doirasida taqdim etishi muhim ahamiyatga ega. Taqdimotchi eng avvalo, taqdimotning maqsadi va vazifasi, jarayonlarni to'g'ri olib borish texnologiyasini, nutq madaniyatini bilishi va unga amal qilmog'i darkor.

Taqdimotning asosiy maqsadi diqqatni to'plash, qiziqtirish, ishontirishdir. Taqdimotchining vazifasi - bu mavzuga tayyorlanishi; auditoriyaga yetkaza olishi; ta'lim vositalaridan to'g'ri foydalana olishidir. Taqdimotdan o'quv



jarayonida foydalanish orqali ko'rgazmalilik, vaqtni tejash, motivatsiya oshirish, tizimlilik, samarali natijaga erishiladi. Taqdimotni olib borishda quyidagi qoidalarga rioya etiladi: kiyinish madaniyati; taqdimotni yaxshi kayfiyatda boshlash va yakunlash; nutq (so'zlash usuli, ritorika) ravon bo'lsin; harakatlar bilan ifodalansin (jestikulyatsiya); vaqt taqsimotiga amal qilinsin; auditoriya bilan vizual aloqani yo'qotmaslik; o'zingizni ishonchli va erkin tutish; harakatlari bir maromda va qo'llaringiz old tomonda erkin bo'lishi; taqdimot vaqtida bir joyda turib qolmaslik; auditoriyaga qarab gapirish; auditoriyaga orqa bilan turmaslik; auditoriyadagilarning diqqatini ko'rgazmalarga yo'naltirish; haddan ortiq ko'p ma'lumotlar bermaslik; muhim ma'lumotlarni takrorlash; taqdimotni shoshilmasdan, bafurja o'tkazishga harakat qilish; taqdimot o'tkazilayotganda ekranni to'sib qo'ymaslik; berilayotgan materialni qisqa va lo'nda bayon etish; misol keltirish va taqqoslash; "Men" dan ko'ra "Biz" so'zini ko'proq ishlatish; slaydlarni o'zgartirayotganda izoh berib borish; nutq so'zlash qoidalari; ravon til melodikasi; nutq tempi (ovozni baland va past pardalarda o'zgartirib turish); auditoriyaga qarab gapirish; so'z bo'g'inlarini to'liq talaffuz qilish; taqdimotni olib borilishida man etiladi: auditoriya bilan vizual aloqani yo'qotish; beharakat ko'rinishda bo'lish; asabiylashish; ortiqcha, behuda harakatlarni qilish kabilarga rioya etiladi.

Shuningdek, taqdimotni olib borishda texnik vositalaridan foydalanishda esa quyidagi qoidalariga: xona sharoiti va texnik vositalarning sozligini tekshirish; texnik nosozliklarga doimo tayyor turish; ekranda tasvirning tushishini tekshirish; proyektor ishiga xalaqit beradigan jihozlarni olib qo'yish; taqdimot uchun mo'ljallangan dasturlardan foydalanish; auditoriya diqqatini ko'rgazmalarga maqsadli yo'naltirish; taqdimot jarayonida ekrandan emas, kompyuter monitoridan foydalanish; ekrandagi tasvirlangan matnlarni o'qimasdan, o'z so'zingiz bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oliy ta'lim tizimi globallashtirishning noaniq jarayonlari va jamiyatning tezkor texnologik va axborot taraqqiyotidan kelib chiqadigan talablarga maksimal darajada javob berishi kerak. Bunda talaba-o'qituvchi tomonidan vizuallashtirishga oid vosita, texnologiyalarni o'rgansa maqsadga muvofiq bo'ladi [8, 9, 10, 11]. Shunga ko'ra, ushbu bilimlarni doimiy ravishda yangilash va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati ortib bormoqda. Albatta bunday usullar talabalarda ma'ruzalar mazmunini qabul qilishni osonlashtiradi, esda saqlab qolishni yaxshilaydi, tahsil oluvchilarning diqqat etiborini o'quv mavzusiga jalb qiladi, motivatsiya (qiziqish) oshadi, o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdinazarovich, R. D. (2023). SOME COMMENTS ON THE DEVELOPMENT OF MILITARY SOCIOLOGY IN UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(5), 646-650.
2. Abdinazarovich, R. D., Jo‘rayevna, N. N., & Saparbayevna, J. N. (2023). MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA IJTIMOIIY XIZMATNING SHAKLLANISH GENEZISI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 1005-1009.
3. Abdinazarovich, R. D. (2023). PATRIOTIC HYMN IN THE NATIONAL SPIRITUAL HERITAGE (AS AN EXAMPLE OF UZBEK FOLK PROVERBS). *Academia Science Repository*, 4(5), 1049-1058.
4. Saparbayevna, J. N., Jo‘rayevna, N. N., & Abdinazarovich, R. D. (2023). YOSHLARDA MAS‘ULIYAT HISSINI TARBIYALASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI. *World of Science*, 6(5), 25-28.
5. Файзуллаева Д.М, Ганиева М. Замонавий ўқитиш воситаларининг педагогик технологиялари тўплами- 2. ТДИУ Иқтисодиёт.Т: 2013
6. Dexkanova, M. U., & Sharifova, Z. K. qizi., & Nurullayeva, NI.(2023). BOSHLANG ‘‘ICH TA‘‘ LIMDA ‘‘TARBIYA‘‘ DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(1), 49-57.
7. Dexkanova, M. U., & Saidova, S. S. qizi., & Baxriddinova, L.(2023). O‘QITUVCHI NUTQI–PEDAGOGIK MAHORAT KO‘ZGUSI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2 (1), 41–48.
8. Жуманиёзова, Н. С. (2022). ОТМГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 24(3), 154-165.
9. Назарова, Н. (2023). STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 6(2).
10. Saparbayevna, J. N., Jo‘rayevna, N. N., & Niyazmatovich, R. Z. (2023). YOSHLAR INTELLEKTUAL BILIMINI OSHIRISHDA PRAGMATIK FIKRLASHNING AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(10), 136-140.
11. ЮНУСОВА, Н., НАЗАРОВА, Н., & ЖУМАНИЯЗОВА, Н. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью " Центр инновационных технологий", (6), 9-16.

